




№06/2025

M

13.00.00 - Pedagogika fanlari
07.00.00 - Tarix fanlari
19.00.00 - Psixologiya fanlari
01.00.00 - Fizika-matematika fanlari
02.00.00 - Kimyo fanlari
03.00.00 - Biologiya fanlari
09.00.00 - Falsafa fanlari
10.00.00 - Filologiya fanlari
11.00.00 - Geografiya fanlari

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga
ixtisoslashgan ilmiy jurnal





BOSH MUHARRIR:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Mizayeva Faroxat Odiljonovna – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Umarova H.O' – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q.M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wooskyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori professor

G'afurov D.O. – falsafa fanlari doktori (PhD)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A.T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R.R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M.A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N.A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Mizayeva Farokhat Odiljonovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Qirg'izboyev A.K – Doctor of Historical Sciences, Professor
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K.M. - Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. - Doctor of Philosophy, Professor
Gafurov D.O. - Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Mirzayeva F.O. - Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. - Doctor of Philosophy, Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. - is a Professor of Toshkent State University of Economics
Ashurov R.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology
Panjiyev M.A - First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N.A. - Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya rayosatining komissiyasining 08.05.2025 yildagi №370/5 qarori bilan Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Psixologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy nashrlar ro'yxatiga kiritilganligini ma'lum qilamiz.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo'yicha ekspert kengashi tavsiyasi (25-05-2025 y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (07-05-2025 y., №5/6); OAK Rayosatining qarori (08-05-2025 y., №370/5).

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.06.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan №C-5669245 reyestr
raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan
o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310



MUNDARIJA

O'SMIRLARDA DESTRUKTIV XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	10
Umarov Baxriddin Mengboyevich, Jabborova Zilola Baxtiyor qizi ONA VA FARZAND MUNOSABATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	16
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna PROFESSOR-O'QITUVCHILAR IMIJINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	21
Jo'rayeva Sohibjamol Norqobilovna OMMAVIY MADANIYATNI BOLALAR XULQ-ATVORIGA TA'SIRINI PSIXOLOGIK SHARTLARI.....	29
Umarova Navbahor Shokirovna PEDAGOGIK FAOLIYATDA KASBIY SO'NISH JARAYONINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK JIHATLARI.....	33
Botirova Dilafruz Bozorovna BULLING XULQ-ATVORINING NAMOYON BO'LISHI VA UNING MAKTAB O'QUVCHILARGA BO'LGAN TA'SIRI.....	39
Tillayeva Nodira Iskandar qizi TASHKILOTDA MOBBING VA UNING XODIMLAR PSIXOEMOTSIONAL SALOMATLIGIGA IJTIMOY-PSIXOLOGIK TA'SIRI.....	42
Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi OILAVIY MUNOSABATLARDA YETAKCHILIK MUAMMOLARI.....	46
Abdumutalova Madina Abdumalik qizi ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN AYOLLARNING IJTIMOY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	49
Abdurahmanova Durdona Dilshodjon qizi SHAXSDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI.....	54
To'raboyev Azamat Muxamadullayevich BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY MOYILLIKNING NAMOYON BO'LISHIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLAR.....	58
Saidova Nargiza Ismatulla qizi PSIXOLOGIYA TALABALARI AMALIYOTI JARAYONIDA KASBIY REFLEKSIYA KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH.....	62
Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna OTA-ONALARNING RAQAMLI VOSITALARDAN FOYDALANISH USLUBI VA BOLALARDA INTERNET QARAMLIGI RIVOJLANISHIGA TA'SIRI.....	67
Maxammadjonov Sherzodbek Ravshanbek o'g'li PSIXOLOGIYADA IJTIMOY MOTIVLAR MUAMMOSIGA BO'LGAN YONDASHUVLAR.....	71
Yo'ldoshev Javlon Ablanazar o'g'li OILAVIY ZIDDIYATLARNING SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TA'SIRI VA ULARNI HAL ETISH USULLARI.....	74
Raximova Gulxayo Alisherovna O'SMIRLIK DAVRINING PSIXOLOGIK MANBALARDAGI TAHLILI.....	79
Matyakubova Shohista Odamboy qizi BOSHLANG'ICH MAKTAB YOSHIDAGI (6-8 YOSH) CHAP QO'LI DOMINANT BO'LGAN BOLALARNING PSIXOLOGIK RIVOJLANISHI VA XUSUSIYATLARI.....	82
Usmanova Sevara Akmalovna OILA VA KASB MUVOZANATI MUAMMOSI ILMIY TADQIQOTLARNING PREDMETI SIFATIDA.....	86
Teshayev Sobit Sodik o'g'li PEDAGOGLARDA IJOBIY FIKR SHAKLLANISHIDA OPTIMIZMNING NAMOYON BO'LISHI.....	90
Sattarova Shaxnozaxon Qo'chqarovna ПЕРФЕКЦИОНИЗМ КАК ФАКТОР ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ ОРГАНИЗАЦИИ.....	95
Атабоев Н.И O'SPIRINLIK DAVRIDA YUZAGA KELADIGAN NIZOLAR PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA.....	100
Maripova Asalxon Botiraliyevna MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TASVIRIY SAN'ATGA QIZIQISHLAR SHAKLLANISHI.....	105
Salaxidinova Xolida Xaliljonovna	



O'SMIRLARDA REFLEKSIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	110
Rustamov Narzillo Raxmonovich	
XORIJ PSIXOLOGIYASIDA "SHAXS O'Z IMKONIYATLARINI RO'YOBGA CHIQRISH" TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	113
Alimova Yayra Hotamovna	
PSIXOLOGIYADA PSIXOFIZIOLOGIK BILIMLARNING AHAMIYATI.....	119
Yakubova Guzal Asatullayevna	
PEDAGOGIK FAOLIYATDA KASBIY DEFORMATSIYA: SABABLARI VA OQIBATLARI.....	124
Abdulxomidova Fotimaxon Abdulxopizovna	
PSIXOLOGIYA FANIDA "STRESS" VA "STRESSGA BARQARORLIK" TUSHUNCHALARINING MAZMUNI.....	129
Ergashev Hasanboy	
YOSHLARNING OTA-ONALIK ROLIGA PSIXOLOGIK TAYYORLIGI DINAMIKASI.....	133
Niyozmetova Munira Ibragimovna	
MAKTABDA SAMARALI PEDAGOGIK USULLAR VA ULARNING PSIXOLOGIK ASOSLARI.....	138
Abdurahmonova Firuza Muhiddinovna	
BOLALARDA KOGNITIV JARAYONNING RIVOJLANISHI.....	142
N.X.Shakirova	
OGNITIV JARAYONLAR TUSHUNCHASI VA ULARNING TA'LIMDAGI ROLI.....	147
Axmedov Davlatbek Saloxidin o'g'li	
MULOQOTDA SHAXS YO'NALGANLIGI PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA.....	151
Raximova E'tibor Rustamovna	
OLIV TA'LIM MUASSASA TALABALARI TA'LIM FAOLIYATIDA O'QUV MOTIVATSIYASINING SHAKLLANISHIGA SUN'YI INTELLEKTNING TA'SIRI.....	156
R.M.Baxtiyorov	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING FAOLIYATLAR JARAYONIDA IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	162
Abduhalimova Durdona Ilhomovna	
BOKSCHILARNING JISMONIY VA TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	168
Qon'irbaev Dastan	
BOG'CHA YOSHDAGI BOLALARDA XAYOLNING RIVOJLANISHI.....	173
Temirova Dilfuza Olim qizi	
TALABALAR JAMOASIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING XORIJ ADABIYOTLARDA YORITILISHI.....	177
Shukurullayev Xamidulla Nurilla o'g'li	
O'SMIRLARDA AGRESSIV XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIGA OILAVIY MUNOSABATLARNING TA'SIRI.....	182
Feruza Alimova Najimovna	

BOG'CHA YOSHIDAGI BOLALARDA XAYOLNING RIVOJLANISHI

Temirova Dilfuza Olim qizi

TAFU magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bog'cha yoshidagi bolalarda hayolning rivojlanishi va shaxs sifatida shakllanishi bilan bog'liq masalalar yoritiladi hamda zarur tavsiyalar beriladi. Bog'cha yoshidagi bolalar psixologiyasi va ularning o'rganilganlik sabablari o'rganilib, tahlil qilingan. Bolalarning rasm chizishlarida ijodiy hayolning shakllana boshlagani haqida ilmiy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, psixologiya, bog'cha yoshi, muhit, oila, mahalla, shaxslararo munosabatlar, motiv, tarbiya.

Abstract. В статье рассматриваются вопросы развития воображения и формирования личности у детей дошкольного возраста, даются необходимые рекомендации. Изучается и анализируется психология детей детского сада и причины их обучаемости. Приводятся сведения о начале проявления творческого воображения в детских рисунках.

Key words: личность, психология, детский сад, среда, семья, сообщество, межличностные отношения, мотив, воспитание.

Аннотация. The article explores the development of imagination and personality formation in preschool children and provides relevant recommendations. The psychology of kindergarten-aged children and the underlying reasons for their learning abilities are studied and analyzed. The emergence of creative imagination in children's drawings is also discussed.

Ключевые слова: personality, psychology, preschool age, environment, family, community, interpersonal relationships, motive, education.

KIRISH

Respublikamizda mustaqillik yillarida inson shaxsiga bo'lgan munosabat keskin o'zgardi. Jamiyat a'zosi bo'lgan har bir shaxs taqdiriga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Ayniqsa, inson hayotining poydevori qo'yiladigan maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish masalasi — pedagogika, psixologiya, ijtimoiy psixologiya hamda maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi fanlarining dolzarb muammolaridan biriga aylanib bormoqda [4].

Bog'cha yoshi davrida bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari yuz berishini inobatga olgan holda, bu davrni quyidagi uch bosqichga ajratish mumkin:

Kichik maktabgacha davr (kichik bog'cha yoshi) — 3–4 yosh;

O'rta maktabgacha davr (o'rta bog'cha yoshi) — 4–5 yosh;

Katta maktabgacha davr (katta bog'cha yoshi) — 6–7 yosh.

Bog'cha yoshidagi bolalarning yaqqol ko'zga tashlanadigan xususiyatlaridan biri ularning faolligi va taqlidchanligidir [3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bog'cha yoshidagi bolalarda xayol bir xil darajada rivojlanmaydi. Agar kichik yoshdagi bog'cha bolalarida asosan tiklovchi xayol ustuvor bo'lsa, o'rta va katta yoshdagi bolalarda ijodiy xayol ham rivojlana boshlaydi. Bolaning bog'cha yoshida harakat doirasining kengayishi, bilimlarining ortishi, turli yangi ehtiyojlar va qiziqishlarning paydo bo'lishi uning xayol jarayonining tez sur'atlarda rivojlanishiga olib keladi. Shu sababli bog'cha yoshidagi bolalarning xayol qilish qobiliyatlari maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarnikiga nisbatan ancha yuqori darajada bo'ladi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning xayoli asosan ixtiyorsiz va tiklovchi xayol bo'lib, bu qobiliyat ularning



turli faoliyatlari jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Diqqatga sazovor jihati shundaki, agar bog'cha yoshidagi bolalarda xayol qilish qobiliyati bo'lmaganida, ularning o'yinlari ham shu qadar xilma-xil bo'lmas edi. Demak, bolalardagi xayol qilish qobiliyati ularni turli xil o'yinlarga undaydi, o'yinlar esa aksincha, xayolni rivojlantiradi.

Bolalarning xayoli faqat o'yinlarda emas, balki mashg'ulotlar davomida ham o'sib boradi. Masalan, loydan yoki plastilindan turli narsalarni yasash, qumdan binolar qurish, rasm chizish kabi mashg'ulotlar bolalarga juda yoqadi. Ayniqsa, rasm chizish bolalarning ijodiy xayolini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Kichik bog'cha yoshidagi bolalarda hali ijodiy xayol rivojlanmaganligi ularning rasmlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Ular asosan kundalik hayotda ko'rgan — uy-ro'zg'or buyumlari, oila a'zolari, ovqatlanish jarayoni va hokazolarni tasvirlashga moyil bo'ladilar. Bu yoshdagi bolalar aynan ko'z o'rganib qolgan manzaralargina haqidagi tasavvurlarini ifodalay oladilar.

O'rta, ayniqsa, katta guruh bolalarining rasm chizishlarida ijodiy xayolning shakllana boshlagani yaqqol ko'zga tashlanadi. Ular rasmlarida nafaqat kundalik hayot, balki uzoq o'tmish yoki kelajak manzaralarini ham tasvirlay boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalar o'z o'yinlarida ham, chizgan rasmlarida ham kattalarning turli faoliyatlarini mustaqil ifodalashga intiladilar. Ular nafaqat mavjud obrazlarni tasavvur qiladilar yoki taqlid qiladilar, balki o'zlarining ijodiy xayollari orqali yangi rollar, syujetlar va voqealarni yaratadilar. Masalan, "poyezd" yoki "vokzal" o'yinida ular faqat poyezd va vokzal xodimlari emas, balki taksi haydovchisi, nazoratchi yoki yo'lovchilarni ham o'yinga jalb etadilar. Katta yoshdagi bolalar rasmlarida hatto xayoliy obrazlar (orzular, fantastik personajlar) ham aks ettiriladi.

Bunday erkin temalardagi rasm chizish jarayoni bolalarning ijodiy xayol qilish qobiliyatini yanada rivojlantiradi. Bundan tashqari, ertaklar ham bolalar xayolining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. O'zbek xalq og'zaki ijodida yosh bolalarga mo'ljallangan, tushunarli va sodda tilda yaratilgan ko'plab ertaklar mavjud. Shuningdek, rus va boshqa xalqlarning ertaklari ham o'zbek tiliga tarjima qilingan holda bolalar e'tiboriga havola etilgan. Bog'cha yoshidagi bolalarga mo'ljallangan ertaklarning aksariyati antropomorfik xarakterga ega bo'lib, ular "gapiruvchi hayvonlar" obrazida yaratilgan. Bunday ertaklar bolalarda nafaqat qiziqish uyg'otadi, balki ularning tasavvuri va munosabatlarini ham shakllantiradi.

Masalan, doimiy yovuz obrazdagi bo'ri, ayyor tulki bolalar tomonidan salbiy baholanadi. Aksincha, qo'rqqoq quyon, xo'roz, g'oz, echki kabi beozor obrazlar ularga yoqadi. Eshitgan ertaklari asosida bolalar o'z o'yinlarida bu obrazlarga "kira oladi", ya'ni xayol kuchi orqali ularni jonlantiradi. Shu tarzda ertaklarning mazmuni ularning o'yin faoliyatiga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Turli ertaklarning tarbiyaviy ahamiyatini inobatga olgan holda, pedagog-tarbiyachilar bolalarga ertak aytib berish yoki o'qib berishga alohida e'tibor qaratishlari lozim.

Xulosa qilib aytganda, xayol bog'cha yoshidagi bolalarning rivojida muhim o'rin egallaydi. Shu sababli bu davrda bolaning xayol qilish qobiliyati yetarli darajada rivojlangan bo'lishi kerak. Chunki maktabga borish bilan boshlanadigan ta'lim jarayonida, ayniqsa, tinglash va tasavvur qilish qobiliyatlarining rivojlangan bo'lishi talab etiladi [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

"Shaxs" tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosini ifodalashga xizmat qiladi. Individning shaxsga aylanishi uchun u psixik jihatdan rivojlangan bo'lishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi hamda o'z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilishi lozim.

Kadrlar tayyorlashning milliy modelida shaxs — bu kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta'lim xizmatlarining iste'molchisi hamda ularni amalga oshiruvchi sifatida ta'riflanadi.

Bola shaxsining rivojlanishi "inson ijtimoiy mavjudotdir" degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Shu bilan birga, inson — tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida qaralganida, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir ko'rsatadi; ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

Chunki shaxsning faoliyatiga, hayot tarziga nafaqat yoshi, bilimi va turmush tajribasi, balki boshqa omillar — fojiali hodisalar, kasalliklar va ijtimoiy muhit ham ta'sir etadi. Inson butun umri davomida o'zgarib boradi, u ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamol topadi. Bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida yetuk shaxsga aylanib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi.



Shaxsning rivojlanishi tarbiya ta'siri ostida kechadi. Shu bois, shaxs fazilatlarini to'g'ri anglash va xato baholamaslik uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish zarur.

TAHLIL VA NATIJALAR

Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun, avvalo, uning xulqiga ta'sir etuvchi omillarni va shaxs xususiyatlarini chuqur bilish zarur. Tarbiyaning bolaga samarali ta'sir ko'rsatishi uchun esa o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish hamda ularni hisobga olish muhimdir. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama uzviy aloqa mavjud.

Maktabgacha yoshdagi bola shaxsining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar haqida gapirganda, fanda individning shaxs sifatida shakllanishida biologik va ijtimoiy omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik muhokamasi uzoq yillardan beri davom etib kelmoqda. Savollar shular jumlasidandir: insonning shaxs sifatida rivojlanishida ijtimoiy hodisalar ustun rol o'ynaydimi yoki tabiiy (biologik) omillar? Yoki tarbiya eng muhim omilmi? Ular o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmi qanday?

Fanda biologik yondashuv deb ataluvchi yo'nalish yetakchi o'rinlardan birini egallagan. Uning vakillari — qadimgi yunon faylasuflari Aristotel va Platon — tug'ma imkoniyatlar, taqdir va tabe'lik inson hayotidagi asosiy omillar deb hisoblashgan. Ularning fikricha, insonning jamiyatdagi o'rni tug'ma xususiyatlar asosida belgilanadi.

XVI asr falsafasida paydo bo'lgan preformizm oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishida nasl (genetik meros)ning rolini birlamchi deb bilgan va ijtimoiy muhit hamda tarbiyaning ta'sirini inkor etganlar.

XX asr boshlarida yuzaga kelgan xorijiy psixologiyadagi yana bir oqim — bixeviorizm esa inson xulqini asosan tashqi stimullarga javoban yuzaga keladigan reaksiya sifatida talqin qiladi. Bu yo'nalish vakillari insonning aqliy salohiyati nasldan-naslga o'tadi va genetik jihatdan belgilanadi, deya hisoblaydi.

Shunga qaramay, bugungi ilmiy qarashlarga ko'ra, tarbiya bola shaxsining shakllanishida muhim, hatto etakchi omil sifatida tan olinmoqda. Tarbiya orqali bola nasl, oila muhiti va ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishi mumkin.

Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir to'rtta yondashuv mavjud:

Biologik yondashuv — inson tabiiy mavjudot sifatida dunyoga keladi. Uning xatti-harakatlari asosan tug'ma instinktlar va ehtiyojlar asosida yuzaga keladi. Bunda inson jamiyat talablariga bo'ysunadi, biroq o'zining tabiiy ehtiyojlarini ham namoyon etadi.

Ijtimoiy yondashuv — inson biologik mavjudot sifatida dunyoga kelsa-da, ijtimoiy guruhlar va muhit bilan doimiy muloqotda bo'lish orqali ijtimoiylashadi.

Psixologik yondashuv — insondagi psixik jarayonlar (sezgi, idrok, tafakkur) tabiiy asosga ega bo'lsa-da, qiziqish va qobiliyatlar ijtimoiy xususiyatga ega bo'ladi.

Yaxlit yondashuv — shaxs yaxlit mavjudot sifatida qaraladi. Uning rivojiga nafaqat faoliyatdagi xususiyatlar, balki turmush tarzi, ijtimoiy hayotdagi motiv, maqsad va qiziqishlar ham ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois, oilaning zimmasiga ulkan va mas'uliyatli ijtimoiy missiya yuklangan. Bola tarbiyasi eng murakkab ijtimoiy vazifalardan biridir. Ota-onaning shaxsiy namunasi — solih va salohiyatli farzandlar tarbiyasining kafolatidir.

Bola tashqi dunyo bilan ilk muloqotga kirishganidan boshlab, unga atrof-muhit va jamoatchilik kuchli ta'sir ko'rsata boshlaydi. Ta'lim muassasalari, mahalla, ommaviy axborot vositalari va umuman ijtimoiy muhit inson shaxsini hayotining oxirigacha kuzatib boradi.

Shu sababli, oilaviy munosabatlarda shaxsning umummadaniy dunyoqarashini shakllantirishga erishish nafaqat alohida shaxslar hayotida, balki jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va taraqqiyotning ruhiy-ma'naviy asosi sifatida muhim o'rin tutadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bog'cha yoshidagi bolalar misolida, ularning aqliy faoliyati odatda hissiyotlar bilan boyitilgan holatda namoyon bo'ladi. Bolalar kuzatayotgan har bir narsa, ular nima haqida o'ylashlari va nima bilan shug'ullanishlari, odatda, emotsional rangdagi munosabatni uyg'otadi.

Bog'cha yoshidagi bolalar o'z hissiyotlarini qanday nazorat qilishni, ularni boshqarishni va tashqi namoyon bo'lishini cheklashni hali to'liq o'zlashtirmagan bo'ladilar. Ularning emotsionalligi emotsional beqarorlik, kayfiyatning tez-tez almashuvi, tashqi ta'sirlarga nisbatan sezuvchanlik, quvonch, qayg'u, g'azab, qo'rquv kabi hissiyotlarning qisqa muddatli va kuchli ifodalanishi orqali namoyon bo'ladi.



Yillar davomida esa bolaning his-tuyg'ularini tartibga solish, ularning noxush ko'rinishlarini nazorat qilish va cheklash qobiliyati asta-sekin rivojlanib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aripova, M. S., & Jalilova, S. X. (2017). Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. Toshkent: Faylasuflar nashriyoti.
2. Nazirova, G. M., & Nuriddinova, Sh. (2024). Maktabgacha yoshdagi bola shaxsining rivojlanishi muammolari. Qo'qon: QDQPI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11210261>
3. Eshchanova, N. M. (2022). Maktabgacha yosh davridagi psixik rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari. Toshkent.
4. Yo'ldosheva, N. N., & Ismoilova, S. E. (2022). Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi va uni o'rganilganlik holati. Termiz: TDPI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.714770>

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Alibek ZOKIROV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin SOBIR O'G'LI

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Toshkent davlat pedagogika universitetining murojaatiga (24-04-2025 y., №11-05-2566/01) ko’ra, psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilganligini ma’lum qiladi.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo’yicha ekspert kengashi tavsiyasi (25-05-2025 y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (07-05-2025 y., №5/6); OAK Rayosatining qarori (08-05-2025 y., №370/5).

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug’bek tumani
Kumushkon ko’chasi, 26-uy.